



FRANSIYA PRUSSIYA URUSHI SABABLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6565752>

Nazirtoshev Firdavs Ixtiyorjon og‘li

Fargona davlat universiteti tarix fakulteti 3 -chi bosqich 19.74 guruh talabasi

Nosirov Faxriddin Nomonjon og‘li

Fargona davlat universiteti tarix fakulteti 3 -chi bosqich 19.74 guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ikki Jahon urushi sabablaridan biri bo‘lgan Fransiya va Prussiya o‘rtasida qonli urush, uning sabablari haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Fransiya, Prussiya, imperiya, Parij, sedan qal‘a, urush, askarlar*

Fransiyada ikkinchi imperiya rejimi XIX asrning 60-yillarida tanazzulga uchradi. Ayniqsa sanoatda tanglik nihoyatda kuchaydi. Korxonalarda ish kunining 13-14 soatga etmagan bolalarning 12 soatlik ish kuniga majbur etilishi norozilikning kuchayishiga sabab bo‘lgan. 1866-1867-yillardagi iqtisodiy krizis Fransiyada ommaviy ishsizlikni keltirib chiqardi. 60- yillarning oxirida Napoleon III imperiyasidagi aholining 70 % qishloqlarda yashagan qishloqlardagi 19,5 mln. aholining 4 mln. yersiz dehqonlar edi.

Shuningdek, 2,5 mln. mayda dehqonlar hom bor edi. Fransiya keyingi davrda Prussiyaning Germaniyani birlashtirishiga to‘sqinlik qila olmay qoldi. Agar Germaniya yagona davlatga birlashadigan bo‘lsa, Fransiyaning xalqaro maydondagi obro‘sigacha jiddiy zarar yetar va Yevropadagi ikkinchi davlatdek mavqeyi barham topar edi. Fransiya hukmron doiralari esa buni aslo xohlamas edilar. Fransiya hukmron doiralari 1860-yildagi Angliya-Fransiya savdo shartnomasidan ham norozi edi. Chunki, ingliz tovarlarining Fransiyaga ko‘plab kiritilishi Fransuz tovarlari bilan raqobatni kuchaytirmoqda edi. Bundan tashqari, mamlakatda ishsizlik, qashshoqlik, qimmatchilik mehnatkashlarning doimiy yo‘ldoshi bo‘lib qolgandi. Shuning uchun ham 1870-yil yanvar oyida Parijda o‘tkazgan 200 ming kishilik namoyishning dahshati bejiz emas edi. Mamlakatda Napoleon III rejimiga qarshi burjua oppozitsiyasining noroziligi ham kuchayib borardi. Fransiyaning hukmron doiralari o‘sha og‘ir krizisdan qutilishining birdan – bir yo‘li urush deb bilishdi.

1870-yili Fransiya imperatori Napoleon III tushib borayotgan obro‘si hamda Fransiyaning oldingi qudratini tiklash maqsadida Prussiyaga urush



e’lon qildi. Ushbu urush tarixga Fransiya-Prussiya urushi nomi bilan kirdi. Shu yili 1-sentabr kuni urush taqdirini amalda hal qilgan Sedan qal’asi jangi bo’lib o’tdi. Bu jang tarixchilikda Fransiya va Germaniyaning bugunga qadar davom etayotgan ixtilofining asosiy sabablaridan biri, shuningdek, keyinchalik ro’y bergan ikki jahon urushining ildizi sifatida baholanadi. Fransiya hamda Prussiya o’rtasidagi urush 1870-yil 19-iyuldan 1871-yil 28-yanvarga qadar davom etdi. Urushni dastlab Fransiya boshladi. Bu paytda Fransiya ikkinchi imperiya boshqaruvi ostida edi. Imperator esa Napoleon I Bonapartning jiyani Napoleon III edi. Bu paytga kelib Germaniya bir nechta mayda davlatlarga bo’linib ketgan edi. Ular ichida eng yirigi Prussiya qirolligi bo’lib, uning bosh vaziri mashhur siyosatchi Otto fon Bismark edi.

Urush Yevropada o’z mavqeyini yo’qotayotgan va yakkalanib qolgan Fransiya bir paytlardagi qudratini tiklash va o’z hududlarini Germaniya hisobiga kengaytirish imkonini berar edi. Urushning yana bir sababi esa bo’shab qolgan Ispaniya taxti uchun ko’rsatilgan [nomzod edi](#). Fransiya Prussiya tomonidan taklif etilgan nomzodni qo’llab-quvvatlamadi va bundan o’ziga nisbatan xavf bor deb hisobladi. 1870-yil 19-iyul kuni Fransiya harbiy qudrati zaif bo’lishiga qaramay, o’zidan son va sifat jihatdan kuchli Prussiyaga urush e’lon qildi. Fransuz qo’shini yaxshi tayyorgarlikka ega emas, son jihatdan kamchilik edi. Urushga Fransiya 300 ming sonli armiya bilan kirgan bo’lsa, Prussiya qo’shinlari 500 mingni tashkil qilardi. Bundan tashqari, fransuz armiyasida aniq harbiy strategiyaning o’zi yo’q edi. Nemis armiyasi esa 1864–1866-yillarda Daniya va Avstriyaga qarshi g’alabali yurishlardan qaytgan va katta tajribaga ega bo’lib, harbiy texnikalar borasida ham ancha ustun edi.





Nemislardan bir nechta jabhalarda magʻlubiyatga uchragan fransuz armiyasi avgust oyining oxiriga kelib Mets va Sedan qalʼalariga chekinishga majbur boʻldi. Shu tariqa 1-sentabr kuni nemislar Sedan qalʼasini qamal qilishni boshladi. Sedanda fransuzlarning 120 ming kishilik armiyasi bor edi. Qoʻshin toʻrtta guruhga boʻlingan boʻlib, bir-biri bilan oʻzaro bogʻliq edi. Butun qoʻshinga Mak Magon qoʻmondonlik qilayotgandi. Napoleon III esa u bilan birga boʻlsa-da, harbiy operatsiyalarga aralashmadi.

31-avgust kunning ikkinchi yarmida nemislar Sedanni oʻrab ola boshladi. Fransuz generallaridan biri 1-diviziyaning qoʻmondoni Ogyust Aleksandr Dyukrot butun qoʻshinni Sedan shimoliga, illi tekisligida joylashtirishni maslahat berdi. Bu esa nemislar Sedanni oʻrab olsa, chekinishga imkon berar edi. Ammo prussiyaliklar kuchlari haqida yetarli maʼlumotga ega boʻlmagan Mak Magon buni qabul qilmadi. Balki qabul qilganida imperator chekinib, Parij mudofaasini tashkil qilishi yoki Prussiya bilan tinchlik bitimiga kelishishi ham mumkin edi.

Jang 1-sentabr sahardan oldin boshlandi. Hujumni bavariyaliklar boshlab berdi. Fransuz armiyasi qoʻmondoni Mak Magon yaralandi va bosh qoʻmondonlikdan ketdi. Uning oʻrniga Dyukrot bosh qoʻmondon boʻldi va u chekinishga buyruq berdi. Ammo qoʻmondonlik uchun nizo kelib chiqdi va Emmanuel Feliks de Vimphen qoʻmondonlikka daʼvogarlik qildi hamda Dyukrotning buyruqlarini bajarishdan bosh tortdi va ularni bekor qildi. Shu kuni uch soatda fransuz qoʻshiniga uchta bosh qoʻmondon almasldi va ularning har biri oʻz rejasi bilan oʻrtaga chiqdi.



Fransiya va Prussiya oʻrtasidagi urush Evropa tarixidagi muhim voqea sanaladi. Odatda uni yangi zamon tarixining ikkinchi davrining boshlanishi



deb hisoblashadi. So‘nggi yillardagi adabiyotlarda bu urush fransuz – German urushi, deb atalmoqda. Chunki urushda ko‘pchilik nemis davlatlari qatnashishgan. Fransuz – German urushi har ikki mamlakat o‘rtasidagi chuqur ziddiyatlarning oqibatida kelib chiqqan. Ma‘lumki, Shimoliy german ittifoqi tarkibiga ko‘pchilik nemis davlatlari birlashgani holda, mamlakatni to‘la ma‘noda birlashtirishga tarafdor bo‘lishdi. Faqat 4 ta nemis davlati iqtisodiy va diniy umumiylik (katolik) jihatidan Fransiya bilan bog‘langan edilar. Mana shu tariqa nemis davlatlarining milliy manfaati siyosiy jihatdan birlashishni taqozo etardi. Demak, Fransiya Germaniya urushining birinchi sababi bevosita nemis davlatlarining tarixiy taqdiri bilan o‘zviy bog‘liq edi. Urushning ikkinchi sababi bevosita Fransiya bilan aloqador edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. <http://www.hozir.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-mahsus-talim-vazir.html?page=10>
 2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Fransiya-Prussiya_urushi
 3. <http://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/14502-fransiya-prussiya-urushi>
 4. <https://daryo.uz/2020/09/02/fransiya-germaniya-ixtilofining-ildizi-va-ikki-jahon-urushining-onasi-sedan-qalasidagi-jangga-150-yil-boldi/>
 5. <https://uz.warbletoncouncil.org/guerra-franco-prusiana-8994>
-